

## Institutimiz ustozlari bilan muloqot

"Butunjahon suv kuni" tanlovlari uchun tashrif buyurgan mehmonlarimiz TIQXMMI Qarshi filiali, Namangan muhandislik-texnologiya instituti talabalariga bugun ilmiy bo'lim tomonidan institut bo'ylab tanishuv sayohati tashkil etildi. Kunning birinchi yarmida mehmonlar institutning barcha yo'nalishlar bo'yicha o'quv laboratoriyalariaga tashrif buyurishdi.



Kunning ikkinchi yarmida xalqaro anjumanlar zalida ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor Tohirjon Sultonov hamda "Antik dunyo" va "Turon" Xalqaro fanlar akademiyalarining akademigi, dotsent va notiq Rahimboy Jumaniyozov ishtirokida davra suhbatlari tashkil etildi. Rahimboy Jumaniyozov savol - javoblar bobida o'zining intellektual salohiyati, bilimdonligi va faolligi bilan ajralib turgan TIQXMMIning Qarshi shahridagi filiali talabasi Diloromxonga o'zining yaqinda chop etilgan "Siz notiq bo'lmoqchimisiz?" nomli kitobini dastxat bilan taqdim etdi.



Institut prorektori Sultonov Tohir Zokirovich talabalarning iltimoslariga binoan notiqlik mahoratinining ustasi R. Jumaniyozovni bir hafta mobaynida dars mashg'ulotlari olib borishlari uchun TIQXMMI Rektori nomiga muassasangiz rahbari nomidan xat qildirishlari va bugungi berayotgan sonsiz savollariga javob olishlari mumkinligini e'tirof etdi. Davra suhbatlaridan so'ng talabalar institutdagi Yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti faoliyati bilan yaqindan tanishdilar. Ularga institut faol talabalari hamda magistrantlari hamrohlik qilishdi. Mehmon talabalarga suvni asrash va unga nisbatan ehtiyyotkorona munosabatda bo'lish haqidagi qo'llanmalar ham taqdim etildi.



**TIQXMMI matbuot xizmati**